



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

MOLIYA SOHASI BO'YICHA KADRLARNI TAYYORLASHDA TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETINING O'RNI

magistranti Ishmuhammedova Lola Xolmurodovna

Qarshi davlat universiteti

E-mail: lolaishmuhammedova@gmail.com

Tel: 99897315343

Annotatsiya

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashning huquqiy-meyoriy asoslari, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining shakllanishi va rivojlanishi, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'lim tizimi va iqtisodiyot bo'yicha kadrlar tayyorlashdagi o'rni, O'zbekistonda iqtisodchi mutaxassislarni xorijiy mamlakatlarda tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari, TDIUning xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlari haqida ma'lumot beruvchi ko'plab ilmiy adabiyotlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodchi mutaxassis, huquqiy-me'yoriy, ilmiy tadqiqot, iqtisodiy va ijtimoiy iqtisodiyot, soliq tizimi.

Аннотация

Впервые в научный оборот введены многочисленные научные труды, освещающие приоритетные направления государственной политики в сфере высшего образования в Узбекистане, нормативно-правовые основы подготовки экономистов, становление и развитие Ташкентского государственного экономического университета, роль ТГЭУ в системе образования и подготовке кадров по экономике, процессы подготовки и повышения квалификации экономистов из Узбекистана в зарубежных странах, а также научные исследования ТГЭУ в сотрудничестве с иностранными государствами.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Ключевые слова: экономист, нормативно-правовые аспекты, научное исследование, экономическая и социальная экономика, налоговая система.

Abstract

For the first time, a wide range of scientific literature has been introduced into academic discourse, providing information on: the priority directions of state policy in the field of higher education in Uzbekistan; the legal and regulatory framework for training economists; the formation and development of Tashkent State University of Economics; the role of Tashkent State University of Economics in the education system and in training personnel in the field of economics; the processes of training and improving qualifications of economists from Uzbekistan in foreign countries; and the scientific research conducted by Tashkent State University of Economics in cooperation with foreign countries.

Keywords: Economic specialist, legal and regulatory framework, scientific research, economic and social economics, tax system.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligiga erishilgandan keyingi qisqa davrda amalga oshirilgan tub siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar natijasida milliy iqtisodiyot rivojida tanazzul holatlarni bartaraf etish, barqarorlikni ta'minlash va muttasil iqtisodiy o'sishga erishishga muvofiq bo'lindi. Bu ijobiy siljish yaxlit olingan milliy iqtisodiyot va uning asosiy yetakchi tarmoqlarida ham kuzatildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda moliya tizimi tubdan isloh qilinib, bu sohada keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotga oid hujjatlarda moliya, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, tushumlarini davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalariga yo'naltirish tartiblari, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish ishlari yanada takomillashmoqda. "Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora tadbirlarni ishlab chiqish"¹ni iqtisodiyotning rivoji taqozo etmoqda.

Respublikadan tashqarida ham keng tanilgan eng yirik Akademiya, Universitet va institutlar, Prezident huzuridagi Davlat Boshqaruv Akademiyasi, IIV Akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro va Samarqand Davlat universitetlari, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Jahon tillar universiteti, Toshkent Moliya instituti, Toshkent Davlat tibbiyot instituti, Toshkent Davlat islom universiteti, Jahon iqtisodi va Diplomatiya universiteti, Agrar universiteti, Texnika universiteti, Konservatoriya, San'at instituti, shuningdek, Respublikaning barcha mintaqalarida joylashgan tibbiyot, gumanitar, Texnika oliy o'quv yurtlarining keng tarmog'i va boshqalar ta'lim tizimining o'zagi hisoblanadi.

Respublikada yangi jamiyat barpo etishda bozor iqtisodiyotini shakllantirish va iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishda, yuksaltirishda 1931 yilda tashkil etilgan hozirgi Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining alohida o'rin egallaydi².

O'zbekistonda moliya-iqtisodchilarni maxsus tayyorlash XX asr boshlarida tashkilan yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyo hududida uchta tijorat bilim yurti savdo-sanoat firmalari va banklar uchun mutaxassislar tayyorlab bergan. Rasman oliy maqomli iqtisodchilarni tayyorlash 1918 yil 12 may Turkiston Davlat Universitetining tashkil etilishidan boshlandi³. Bu universitetnint tarkibidagi jamiyatshunoslik va iqtisodiyot fakulteti Markaziy Osiyo va Qozog'iston Respublikalari uchun oliy ma'lumotli iqtisodchilarni muntazam ravishda tayyorlay boshladi.

1931 yil 13 avgustda O'rta Osiyo Moliya-Iqtisod instituti (keyinchalik Toshkent Moliya instituti) tashkil etildi⁴. Uning oldiga Markaziy Osiyo va Qozog'iston Respublikalarida moliya-kredit va hisoblash tizimlari uchun oliy toifali

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B. 11.

² Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасалари маълумотнома. – Т.: 2002. “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти”. 27-б.

³ <https://tsue.uz/oz/science/scientific-magazines>

⁴ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: “ДИН”, 2006, 567-бет.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan edi. Bu hozirgi Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining dastlabki ko'rinishi edi.

1931 – 1941 yillargacha bo'lgan davrda institut o'zining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy ishlarini takomillashtirib, tinimsiz mukammallashtirib bordi. 1939 yilda institut qoshida dastlabki aspirantura tashkil etilib, unda besh kishi o'qiy boshlagan⁵.

Institutning rivojlanishida Toshkentga kelgan A.I. Gazulov, A. K. Shmidt, V. V. Novojilov va boshqa shu kabi iqtisodchi-olimlar ma'lum rol o'ynadilar. Toshkent Moliya-iqtisod instituti tashkil etilayotgan 1931 yilda 10 ta kafedra barpo etilgan bo'lib, ularning birortasida ham ilmiy darajaga ega bo'lgan fan nomzodi bo'lmagan. 1941 yilda esa 58 o'qituvchidan 10 nafari fan nomzodi, dotsent va bir nafarigina fan doktori edi. Bu davrda institutga A. S. Xalikov (1931 – 1934), S. S. Sayduzov (1934-1938), K. A. Sirixov (1938 – 1940) rahbarlik qilganlar.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligining uzluksiz rivojlanib borishi va iqtisodchilarga bo'lgan talabning o'sishiga ko'ra institutga talabalar qabul qilish ham ko'paya bordi. 1932 yilda institutga 47 ta talaba qabul qilingan bo'lsa, 1940 yilda esa bu ko'rsatkich 240, 1942 yilda 205, 1943 yilda – 296 nafarga yetdi. Biroq ularning aksariyat qismi ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan frontga safarbar qilinganligi tufayli, bitiruvchilar soni 1942 yilda - 137, 1943 yilda - 27, 1944 yilda - 68 va 1945 yilda - 42 kishini tashkil etdi. Urush davrida institut katta qiyinchiliklarga duch keldi. Bir qator professor-o'qituvchilarning frontga jo'natilganligi sababli, o'quv mashg'ulotlari olib borish uchun professor-o'qituvchilar yetishmasligi sezilar edi. Bu yillarda institutni M. M. Popov (1940-1942), Vlasenko (1942-1945) boshqarganlar⁶. Urushdan keyingi yillarda institut xalq xo'jaligini tiklash, harbiylashgan xo'jalikni, tinch aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ishlab chiqarishni tashkil etish va rivoji uchun kadrlar tayyorlashga kirishdi. 1946 yilda institut ancha mustahkamlanib olgan bir sharoitda, ikkita yangi – kredit-iqtisod va hisob-iqtisod fakultetlari tashkil etildi. Institut dastlabki yillarda faqat moliya ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlagan

⁵ Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 16-бет.

⁶ Кўрсатилган асар. 16-17-бетлар.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

bo'lsa, shu yildan e'tiboran xalq xo'jaligi tarmoqlari, moliya-bank organlariga hisob-iqtisodchi kadrlarni ham tayyorlab bera boshlagan. Moliya-iqtisod institutining o'sishi va rivojlanishi sharoitida turli xil yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo'ldi. 1947 yilda institutda reja-iqtisod fakulteti tashkil etildi. Bu fakultet, asosan, sanoat va qishloq xo'jaligi, moliya va boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun iqtisodchi kadrlar tayyorlar edi. 1948 yilda kechki fakultet ochildi. Unda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, institutning barcha mutaxassisliklari bo'yicha iqtisodchi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

1949-yilda institutni hammasi bo'lib 205 kishi bitirib chiqdi. 1946-1950 yillarda Toshkent Moliya-iqtisod instituti sezilarli ravishda kengaydi. 1955 yilda moliya-iqtisod va kredit-iqtisod fakultetlari birlashtirilib, moliya-iqtisod fakultetiga aylantirildi. Bu fakultet moliya va kredit bo'yicha kadrlar tayyorlay boshladi. Shu yillarda xalq xo'jaligi tarmokdarining ko'lami kengayishi bilan bir qatorda, uning kadrlarga bo'lgan talabi ham ortib bordi. Ayniqsa, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishga qiziqish kuchaydi. Ana shuning asosida 1955 yilda sirtqi fakultet ham tashkil etildi. 50-yil o'rtalarida institutda 5 ta fakultet va 15 ta kafedra mavjud bo'lib, ularda 6 ta mutaxassislik bo'yicha iqtisodchi kadrlar tayyorlanar edi. Shunday qilib, Toshkent Moliya-iqtisod instituti Markaziy Osiyo va Qozog'iston Respublikalari uchun iqtisodchi kadrlarni tayyorlash maskaniga aylana bordi. Bu davrlarda institutni Z. A. Karakozov (1945-1947), M. Tursunov (1947-1952) kabi olimlar boshqargan⁷.

XX asrning 50-yillari boshida institutda 95 ta professor-o'qituvchilar bo'lib, ulardan bir nafari fan doktori va 29 tasi fan nomzodi edilar. Bu ilmiy salohiyat asosida institutda o'quv-uslubiy va ilmiy izlanish ishlari bo'yicha sezilarli tarzda burilish yasaldi.

XX asrning 60-yillarda institut olimlari Respublikaning sanoat, qurilish, transport va boshqa tarmoqlari iqtisodiyotini o'rganish va uning asosiy fondlari samaradorligini oshirish muammolarini hal qilish bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borganlar. 1954 yildan 1963 yilgacha institutda 45 ta nomzodlik dissertatsiyalar himoya qilingan.

⁷ Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 18-бет.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

XX asrning 60-yillar boshida O'zbekistan iqtisodiyoti rivojlanishida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi Toshkent Moliya-iqtisod institutini tarmoq instituti doirasidan chiqib ketishiga sabab bo'lgan.

1963 yilda O'zbekiston hukumati Toshkent Moliya-iqtisod instituti zaminida Toshkent Xalq xo'jaligi institutini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. 1963 yil 1 sentabrdan boshlab institut Xalq xo'jaligi instituti dasturi bo'yicha o'quv jarayonini boshladi⁸. Keyingi yillarda o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlarni mukammallashtirish bo'yicha ko'plab vazifalar amalga oshirildi.

Xalq xo'jaligi instituti sharoitida 1963 yildan 1972 yilgacha ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan ilmiy kadrlar soni bir necha marta ortdi va ular 433 ta professo r – o'qituvchilarni tashkil etdi. Bulardan 13 kishi fan doktori va professor bo'lib, ular qatorida K. P. Otamirzayev, A. A. Azatyan, S. G'. G'ulomov, O. P. Zagorodnyuk, M. K. Mamadjanov, T. S. Sagdullayev, X. R. Sobirov, K. D. Tyurin, N. D. Jabborov, S. P. Tursunmuhammedov, S. Q. Qodirxonov, I. A. Shilov, M. I. Eydelnant kabilar yetishib chiqqan edi. Olimlardan 153 kishi fan nomzodi va dotsentlardan iborat bo'lib, 30 kafedrada faoliyat ko'rsatgan⁹.

Ilmiy kadrlarning katta salohiyati yangi ilmiy yo'nalishdagi iqtisodchi kadrlarni tayyorlash imkonini berdi. Toshkent Xalq xo'jaligi institutida 5 ta ijtimoiy, 3 ta gumanitar, 8 ta iqtisodiy fanlar, 8 ta hisob va matematika kafedralari, qolgan 6 tasi umumnazariy yo'nalishlar bo'yicha kafedralar mavjud bo'lgan.

1971 yildan 1975 yilgacha institutga qabul qilinuvchilar soni 2300 dan 2600 nafargacha ko'paydi. Talabalarning soni esa 10847 kishiga yetdi. Aspirantlar safi ham kengayib, 125 kishini tashkil etdi¹⁰.

1976 yili institutning Andijon shahridagi filiali ish boshladi. O'quv-uslubiy ishlarning rivojlanishi, ilmiy kadrlarning ko'payishi va Xalq xo'jaligi institutida iqtisodiy muammolarning hal qilinishi ilmiy-tadqiqot ishlarni va ilmiy kadrlar tayyorlashning rivojlanishiga olib keldi. Bu institut ilmiy salohiyatining o'sishiga asos bo'ldi. Har tomonlama ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirayotgan ilmiy kadrlarga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Institutda 1962 yilda iqtisodiy fanlar

⁸ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: “ДИН”, 2006, 567-бет.

⁹ Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 21-бет.

¹⁰ Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 22-бет.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoyasini qabul qila oladigan Ilmiy Kengash tashkil etilgan. Bu institutda ilmiy salohiyatning ko'tarilishiga xizmat qilgan. 1962 yildan to 1980 yilgacha 500 dan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Ayniqsa, 80 yillarda Markaziy Osiyo Respublikalari va xususan, Respublikamiz uchun ilmiy kadrlar tayyorlashda muvaffaqiyatga erishildi. 1985-1990 yillarda 31 ta doktorlik va 146 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

1991 yil 13 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, Toshkent Xalq xo'jaligi institutining moliya-iqtisod hamda hisob-iqtisod fakultetlari zaminida yangidan Toshkent Davlat moliya instituti tashkil etildi¹¹. Unga iqtisod fanlari doktori, professor, O'zbekiston FA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi M. Sh. Sharifxo'jayev rektor etib tayinlandi¹².

1988 yildan to 1998 yilgacha Universitetda akademik S. S. G'ulomov rektorlik lavozimida ishladi¹³. Toshkent Xalq xo'jaligi institutiga 1991 yilning 6 iyunidan boshlab Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti maqomi berildi. 1998 yil iyun oyidan 2004 yilga qadar iqtisod fanlar doktori, prof. R. X. Alimov, 2004-2006 yillarda S.S.G'ulomov, 2006 yil may oyidan 2010 yil martgacha iqtisod fanlari doktori, professor B.Y.Xodiyev, 2015-2016 yillarda M.R.Boltabayev, 2016 yil may oyidan 2019 yilgacha B.Y.Xodiyevlar universitetni boshqargan¹⁴. 2019-yildan 2024-yilgacha professor K.A. Sharipov universitet rektori lavozimida ishlab kelgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 7-fevraldagi qaroriga ko'ra, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qayta tashkil etildi va bunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarkibiga Toshkent moliya instituti va Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut qo'shildi¹⁵. Professor T.Z. Teshabayev universitetning rektori etib tayinlandi.

¹¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: “ДИН”, 2006, 567-бет.

¹² Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 23-бет.

¹³ https://enc.for.uz/wiki/Toshkent_davlat_iqtisodiyot_universiteti

¹⁴ Абулкосимов Ҳ.П., Жўраев Т.Т., Иқтисодчи олимлар. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2016, 66-бет.

¹⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_davlat_iqtisodiyot_universiteti



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Respublikamizning mustaqillikka erishuvi va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishi o'z navbatida kadrlar tayyorlashning barcha yo'nalishlari bo'yicha yangicha yondoshish vazifalarini qo'ydi. Hayotning o'zi zamonaviy mutaxassislarga bir qator vazifalarni, ya'ni zaruriy axborotga ega bo'lish, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz maqsad va vazifalarini aniq ko'ra bilish, mukammal bilimli bo'lish va ana shu bilimlarini hayotimizning barcha jabhalariga; ishlab chiqarish, madaniyat, ma'rifat va ma'naviyat sohalariga ijodiy yondoshgan holda qo'llay bilish kabi vazifalarni qo'ydi. Mutaxassis o'z sohasining bilimdoni, jismonan sog'lom, tarbiyali, hamda har tomonlama yuksak rivojlangan bo'lishi kerak.

Respublikada 2021 yilda 129 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 96 tasi milliy oliy ta'lim muassasalari, 24 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblangan bo'lsa¹⁶, 2022 yilda ularning soni yanada ortgan va nodavlat ta'lim muassasalari soni ham kundan-kunga ortib bormoqda.

Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha shu kadrlar tayyorlanmoqda. 2019-2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi. Umumiy qilib aytganda, Respublika bo'yicha 2019-2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasida 2018-2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani

¹⁶ Қодиров Х.Т., Аҳмаджонова М.Б., Наманган вилоятида олий таълим хизматларини ривожланиши // Иқтисодиёт ва таълим, 2021 йил №4, – Б.338.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). Soʻnngi 3 yilda 1693 nafar professoroʻqituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy taʼlim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog hodimlar soni 9636 nafarga yetdi (shundan 2130 nafari fan doktori (DSc), 7506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy taʼlim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishilgan¹⁷.

Ilmiy salohiyatning oshirishda va sifatli kadrlar tayyorlashda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining oʻziga xos oʻrni bor. Oliygoʻhda oʻquv ishlarini uzluksiz tashkil etish, mukammallashtirish va boshqarishda uzoq yillar davomida oʻquv boʻlimini oʻz xizmat burchlarini sidqidillik bilan amalga oshirgan F. S. Satayev, T. Sh. Shodiyev, N. X. Hakimov, B. B. Usmonovlarning faoliyatlarini alohida taʼkidlash lozim¹⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.354.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.367.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.371.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Т., “Ўзбекистон” , 1995, 28-36, 267-270-б
5. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт каффолатлари. –Т., Ўзбекистон,” 1997, 24-25, 31 б
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-жилдлик, 3 жилд.-Т., “Шарқ,” 2000. 328, 540-548 б
7. Алимов Х, Алимов А, Ахунова Г.Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани. Тошкент, - “Шарқ”. – 2001. 192 б.

¹⁷ Қодиров Ҳ.Т., Аҳмаджонова М.Б., Наманган вилоятида олий таълим хизматларини ривожланиши // Иқтисодиёт ва таълим, 2021 йил №4, – Б.338.

¹⁸ Алимов Р. Х., Алимов Қ. А., Ахунова Г. Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани, – Т. “Шарқ”, 2001, 22-бет.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

-
8. Ishmuhammedova L. O‘zbekistonda moliya siyosati va uning ijtimoiy iqtisodiy hayotga ta’siri.//Milliy Universitet Axborotnomasi//Toshkent-2024., 28-30
 9. Ishmuhammedova L. Markaziy bankning Respublika Moliya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati// Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi-4/3-2025.Xiva-2025.,45-47 b
 - 10.Йулдошев Қ., Муфтайдинов Қ. Иқтисодий билим асослари. Т., «Ўқитувчи», 1997.
 - 11.Абулқосимов Ҳ.П., Жўраев Т.Т. Иқтисодчи олимлар. Т., «Фан ва технология», 2016.